KEKSA BEMOR BILAN MULOQOTDA DALDA VA NORMALLASHTIRISH VOSITALARI

Xomidova Malohat Oktyabrjon qizi
Andijon davlat chet tillari instituti mustaqil tadqiqotchisi
DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.23880248

Annotatsiya. Tezisda o'zbek tilidagi tibbiy qabulda shifokorning keksa bemorga dalda berish va kasallikni normallashtirish vositalari tahlil qilinadi. Normallashtirishning to'rt turi, barqaror dalda iboralari va diniy leksikaning vazifalari ajratiladi.

Kalit so'zlar: tibbiy diskurs, dalda, normallashtirish, keksa bemor, nutqiy taktika, diniy leksika.

Abstract: This abstract analyzes the linguistic tools used by doctors to encourage elderly patients and normalize their health conditions during medical consultations in the Uzbek language. It identifies four types of normalization, stable reassuring phrases, and the specific functions of religious vocabulary in this context.

Keywords: medical discourse, reassurance, normalization, elderly patient, speech tactic, religious vocabulary.

Аннотация: В тезисе анализируются языковые средства, используемые врачом для эмоциональной поддержки пожилых пациентов и нормализации заболевания во время медицинского приема на узбекском языке. Выделяются четыре типа нормализации, устойчивые выражающие поддержку фразы, а также функции религиозной лексики.

Ключевые слова: медицинский дискурс, эмоциональная поддержка, нормализация, пожилой пациент, речевая тактика, религиозная лексика.

Shifokor nutqida bemorni tinchlantirish davolash jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. S.V. Mayboroda rus tibbiy diskursida bu vazifani rag'batlantirish strategiyasi doirasida tavsiflaydi [Mayboroda 2021: 83–88]. O'zbek tilidagi qabullarda esa dalda vositalari o'ziga xos shakllarga ega va ular bemorning yoshiga qarab tanlanadi.

Tadqiqot materiali 2026-yilda Andijon shahrida to'plandi: 99 nafar shifokor so'rovnomasi, 22 nafar bemor va ularning yaqinlari so'rovnomasi hamda poliklinika, shifoxona va xususiy klinikalarda kuzatilgan 21 ta qabul (shundan 9 tasi 60–65 yoshli bemorlar bilan). Pilot bosqichdagi informant va telefon suhbatlari faqat sifat tahlilida ishlatildi.

Kuzatuvda daldaning eng ko'p qo'llangan vositasi normallashtirish bo'ldi: u 21 qabulning 10 tasida qayd etildi. Materialda normallashtirishning to'rt turi ajratildi:

1. Kichraytirish: kasallikning ahamiyati to'g'ridan-to'g'ri kamaytiriladi ("Hechqisi yo'q, oddiy bosh og'riq", KZ-03).
2. Pastga qiyoslash: bemor holati undan og'irroq holat bilan solishtiriladi ("Hech narsamas bu, sizdan battarlariyam tuzaldiku", KZ-07).

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

3. Ommalashtirish: holat ko‘p uchrashi ta’kidlanadi (“Shunaqa holatlar ham ko‘p bo‘ladi, lekin tuzalib ketasiz”, KZ-13).

4. Muvozanatli normallashtirish: xavf kichraytiriladi, lekin e’tibor zarurligi saqlanadi (“Onajon, bu hech qanaqa yomon kasalmas, lekin e’tibor kerak sizga”, KZ-20).

Pastga qiyoslash rag‘batlantirish strategiyasiga yaqin, ammo undan farq qiladi: rag‘batlantirishda bemorning yutug‘i ta’kidlanadi, pastga qiyoslashda esa bemor boshqalardan “omadliroq” ekani ko‘rsatiladi. Kichraytirishning xavfli tomoni ham bor: u bemor shikoyatini e’tiborsiz qoldirgandek eshitilishi mumkin. Shu sababli “lekin” bog‘lovchisi bilan dalda va ogohlantirishni birlashtiruvchi muvozanatli shakl shifokorlar uchun namuna sifatida tavsiya etilishi mumkin.

So‘rovnoma va kuzatuv natijalarini solishtirish qiziq farqni ko‘rsatdi. Shifokorlarning atigi 6 foizi “Bu hech narsa emas” iborasini o‘ziga eng yaqin deb tanlagan, real qabullarda esa kichraytirish va normallashtirish iboralari eng ko‘p uchragan dalda vositasi bo‘ldi. Demak, bu taktika shifokorlar tomonidan ongli uslub sifatida emas, avtomatlashgan nutq qolipi sifatida qo‘llanadi.

Daldaning ikkinchi muhim vositasi tayyor xalq iboralaridir. “Otdek bo‘lib ketasiz” va “Hech narsa ko‘rmagandek bo‘lasiz” iboralari to‘rt xil mustaqil manbada (kuzatuv, so‘rovnoma, informant va telefon suhbatlari) takrorlandi. Shifokorlarning 13 foizi birinchi iborani, 20 foizi ikkinchisini o‘ziga eng yaqin deb tanlagan. “Otdek bo‘lib ketasiz” zoomorf o‘xshatishga asoslanadi va bemorga kelajakdagi sog‘lom holatini jonli obraz orqali ko‘rsatadi. Bu iboralar umumxalq nutq zaxirasiga kirgani uchun bemorga tez va qiyinchiliksiz yetib boradi.

Dalda bemor yoshiga qarab ikki yo‘nalishda quriladi. Yosh bemorga uning yoshligi eslatiladi (“O‘ylanmang, hali yoshsiz, yengib ketasiz”, KZ-14), keksa bemorga esa yoshiga nisbatan sog‘lomligi maqtaladi (“Sizning yoshingizda bunaqa sog‘lom tana qayerda deysiz”, KZ-17).

Diniy iboralar keksa bemor bilan muloqotda alohida o‘rin tutadi. Kuzatuvda ular 21 qabulning 5 tasida uchradi va bulardan 4 tasi 60 yoshdan katta bemorlar bilan bo‘lgan qabullar edi. Materialda diniy iboralarning uch vazifasi ajratildi: ishontirish (“Yurganimizga ham shukur qilishimiz kerak, otaxon”, KZ-08), tasalli (“Dardini bergan Allohim shifosini ham beradi”, S-4) va tilak (“Inshaolloh”, KZ-17). Bizningcha, bu holat muloqotga moslashuv (konvergensiya) hodisasining o‘zbek materialidagi ko‘rinishidir [Coupland va boshq. 1988]: shifokor keksa bemorning nutq uslubiga yaqinlashadi. Xorijiy adabiyotda keksalarga qaratilgan nutqning ayrim belgilari kamsitish sifatida baholansa-da [Shaw, Gordon 2021], materialimizda bemorlar diniy iboralarni salbiy qabul qilgani qayd etilmadi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tibbiy diskursida keksa bemorga dalda asosan normallashtirish, barqaror xalq iboralari va diniy leksika orqali beriladi. Bu vositalarni tibbiyot ta’limidagi muloqot mashg‘ulotlarida ongli o‘rgatish, ayniqsa muvozanatli normallashtirish shaklini tavsiya etish shifokor nutqining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Coupland N., Coupland J., Giles H., Henwood K. Accommodating the elderly: Invoking and extending a theory // Language in Society. – 1988. – Vol. 17. – P. 1–41.
2. Shaw C.A., Gordon J.K. Understanding elderspeak: an evolutionary concept analysis // Innovation in Aging. – 2021. – Vol. 5 (3). – igab023. DOI: 10.1093/geroni/igab023.
3. Майборода С.В. Речевые стратегии врача в условиях коллегиальной и авторитарной модели коммуникации доктора и пациента: схождения и противоречия: дис. … канд. филол. наук: 10.02.19. – Саратов, 2021.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.